



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy bo'lim tomonidan  
ro'yxatga olindi

№ 1908835

2019 yil " " "

190835

Toshkent moliya instituti  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor

I.N. Qo'ziyev

2019 yil " " "



## BYUDJET HISOBI

### ISHCHI O'QUV DASTURI

<b>Bilim sohalari:</b>	100000 – Gumanitar soha; 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
<b>Ta'lim sohalari:</b>	110000 – Pedagogika; 230000 – Iqtisod.
<b>Ta'lim yo'nalishlari:</b>	5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

Toshkent-2019

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 201\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli buyrug'i (buyruqning \_\_\_-ilovasi) bilan tasdiqlangan "Byudjet hisobi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent moliya instituti Kengashining 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_dagi "\_\_\_"-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:**

G'aniyev Sh.V. – TMI, "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasida dotsenti

**Taqrizchilar:**

Xotamov K.R. – O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedrasida mudiri, i.f.d. (Turdosh OTMdan);

Pardayev Sh.Ch. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi boshqarma boshlig'i (kadrlar buyurtmachisi).

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli majlisida muhokama etilib, "Byudjet hisobi va g'aznachilik" fakulteti Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**"Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasida**

**mudiri:**

2019 yil "\_\_\_" \_\_\_ i.f.d., prof. A.J.Tuychiyev

Fanning ishchi o'quv dasturi "Byudjet hisobi va g'aznachilik" fakulteti Kengashining 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli majlisida muhokama etilib, institut O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**"Byudjet hisobi va g'aznachilik"**

**fakulteti dekani:**

2019 yil "\_\_\_" \_\_\_ i.f.n., dots. Ortiqov U.D.

Fanning ishchi o'quv dasturi institut O'quv-uslubiy Kengashining 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli majlisida muhokama etilib, institut Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**Kengash kotibi:**

2019 yil "\_\_\_" \_\_\_ i.f.n., dots. T.M.Baymuratov

## **KIRISH**

Ushbu ishchi o'quv dastur "Byudjet hisobi" fanining predmeti va metodi, byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini tashkil etish uslubiyoti, ahamiyati hamda xususiyatlari, moliya organlari, g'aznachilik va uning xududiy bo'linmalari, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi byudjet hisobini tashkil etish asoslari, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalar byudjetlari daromadlari va xarajatlari ijrosi hisobi, byudjet ssudalari hamda byudjetlar o'rtasida o'zaro hisoblashuvlar hisobi, byudjetlar ijrosi natijalari hisobi va hisobotlari, byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari, byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi, byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy va moliyaviy aktivlar hisobi, turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi, hodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish tartibi, byudjet hisobining axborot tizimlari turlari va ulardan foydalanish masalalarini qamraydi.

### **I. O'quv fanining dolzarbligiva oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Ushbu "Byudjet hisobi" fanining mazmuni, predmeti va metodi, davlat byudjeti ijrosi bo'yicha byudjet hisobini tashkiliy - uslubiy jihatlari, davlat byudjeti daromad va xarajatlari ijrosi hisobi, byudjetlararo munosabatlar hamda qarzlari hisobi, davlat byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisobotlari, byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkiliy-uslubiy jihatlari, byudjet tashkilotlarida smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi, byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar va moliyaviy aktivlar hisobi, turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi, hodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi, byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi, byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar kabi masalalarni qamrab oladi.

Talabalarning ushbu fanni chuqur o'rganishi buxgalteriya hisobi, davlat byudjeti, moliya hamda g'aznachilik fanlari hamda byudjet tizimi byudjetlari ijrosi hisobini tashkil etish va yuritishda zamin bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu "Byudjet hisobi" fani "Moliya" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi tarkibida byudjet tizimi byudjetlari ijrosi hisobini kompleks ravishda o'rganilishini nazarda tutadi.

### **II. Fanning maqsad va vazifalari**

"Byudjet hisobi" fanining asosiy maqsadi – talabalarda moliya organlari, g'aznachilikning xududiy bo'linmalarida Davlat byudjetining kassa ijrosi hisobi hamda byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosi va hisobi bo'yicha nazariy - amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga byudjet hisobi fanining predmeti, metodi va uslubiy asoslari, moliya organlari, G’aznachilik va uning xududiy bo’linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari, G’azna ijrosi sharoitida Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari kassa ijrosi hisobi, byudjet ssudalari va byudjetlar o’rtasida sodir bo’ladigan hisoblashishlar hisobi, byudjet ijrosi natijalari hisobi va hisobotlari, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning nazariy-uslubiy asoslari, byudjet tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi, tovar moddiy zahiralari hisobi, byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi, turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi, xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi, byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi, byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarining tarkibi va ularni shakllantirish haqida nazariy-amaliy bilimlarni o’rgatishdan iborat.

Har bir mavzu yakunida ta’lim texnologiyalari keltirilgan va ularni qo’llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan modul tizimi asosida tayyorlangan majmuada bayon etilgan.

Fan bo’yicha talabalarining tasavvur, bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar

**Mazkur fan bo’yicha bakalavr:**

- byudjet hisobini tashkil etishning ahamiyati hamda xususiyatlari;
- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjeti ijrosi hisobini uslubiy asoslari;
- byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va ular ijrosi hisobining uslubiy asoslari;
- byudjet hisobining axborot tizimlari turlari *haqida tasavvurga ega bo’lishi*;
- davlat byudjeti ijrosi hisobini tashkil qilish;
- davlat maqsadli jamg’armalari byudjeti ijrosi hisobini tashkil qilish;
- byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil qilish;
- byudjet hisobining axborot tizimlarini *bilishi va ulardan foydalanish*;
- moliya organlari, g’aznachilik va uning xududiy bo’linmalarida byudjet ijrosi hisobini yuritish;
- davlat maqsadli jamg’armalarni taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosi hisobini yuritish;
- byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini yuritish;
- byudjet hisobining axborot tizimlarini qo’llash *ko’nikmalariga ega bo’lishi*.
- byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosini buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirish tartibi haqidagi tasavvur va malakaga ega bo’ladi.

“Byudjet hisobi” fani 4–bosqichning VII semestrda o’qitilib, unda ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim mashg’ulotlari semestr bo’yicha quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

**5230900-Бухгалтерия ҳисоби ва аудит (тармоқлар бўйича) sirtqi ta'lim yo'nalishida “Byudjet hisobi” fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti (4-kurs)**

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami	Shu jumladan		
			Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim
<b>7-semestr</b>					
1	“Byudjet hisobi” faniga kirish. Fanning mazmuni, predmeti,metodi va usullari.	8	2	2	4
2	Davlat Byudjeti ijrosi hisobining tashkiliy – uslubiy jihatlari	6			6
3	Davlat Byudjeti daromadlari ijrosi hisobi	8			8
4	Davlat Byudjeti harajatlari ijrosi hisobi	8			8
5	Byudjetlararo munosabatlar hamda qarzlar hisobi	8			8
6	Davlat Byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisobotlar	6			6
7	Byudjet tashkilotlarida Byudjet hisobining tashkiliy – uslubiy jihatlari	8			8
8	Byudjet tashkilotlarida smetalar hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi	14	2	4	8
9	Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi	12	2	2	8
10	Byudjet tashkilotlarida Tovar moddiy zaxiralar hisobi	8			8
11	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi	6			6
12	Byudjet tashkilotlarida turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi	8			8
13	Byudjet tashkilotlarida xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi	12	2	2	8
14	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi	12	2	2	8
15	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar	8			8
<b>7-semestr bo'yicha jami</b>		<b>132</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>110</b>
<b>JAMI</b>		<b>132</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>110</b>

### III. ASOSIY QISM

#### 1. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

##### **1-Mavzu. "Byudjet hisobi" faniga kirish. Fanning mazmuni, predmeti, metodiva usullari.**

"Byudjet hisobi" fanining predmeti, metodi va uslubiy asoslari. Byudjet hisobi ob'ektlarining iqtisodiy mazmuni. "Byudjet hisobi" fanining predmeti, ob'ekti. "Byudjet hisobi" fanning metodi. "Byudjet hisobi" fanning vazifalari. Byudjet hisobining byudjet ijrosi sohasidagi vazifalari. "Byudjet hisobi" fanining boshqa maxsus fanlar bilan aloqasi. "Byudjet hisobi" ning axborot tizimlari haqida tushunchava ularning turlari.

##### **2-Mavzu. Davlat Byudjeti ijrosi hisobining tashkiliy – uslubiy jihatlari**

Davlat Byudjeti ijrosi bo'yicha Byudjet hisobini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari. Davlat Byudjeti ijrosi bo'yicha Byudjet hisobida qo'llaniladigan hisob xujjatlari va registrlari. Davlat Byudjeti ijrosi bo'yicha Byudjet hisobida qo'llaniladigan hisobvaraqlar va buxgalteriya balansi. Davlat Byudjeti ijrosi bo'yicha Byudjet hisobining axborot tizimlari va ulardan foydalanish.

##### **3-Mavzu. Davlat Byudjetidaromadlari ijrosi hisobi**

Davlat Byudjeti daromadlari ijrosi hisobining maqsadi va vazifalari. G'azna ijrosi sharoitida davlat byudjeti daromadlarining ijrosi hisobi. Davlat Byudjeti va daromadlarini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari va hisob registrlarida aks ettirish. Davlat Byudjeti daromadlarining analitik va sintetik hisobi. Davlat Byudjeti daromadlarini hisobning axborot tizimlarida aks ettirish.

##### **4-Mavzu. Davlat Byudjeti xarajatlari ijrosi hisobi**

Davlat Byudjeti xarajatlari ijrosi haqida tushuncha. Davlat Byudjeti xarajatlarning ijrosi hisobi. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari orqali moliyalashtirish tartibi. G'aznachilik bo'linmalarida moliyalashtirishni xujjatlashtirish va buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish. Davlat byudjeti xarajatlarning analitik va sintetik hisobi. Davlat Byudjeti xarajatlarini hisobning axborot tizimlarida hisobga olish.

##### **5-Mavzu. Byudjetlararo munosabatlar hamda qarzlari hisobi**

Byudjet ssudalari, uning Byudjet ijrosi jarayonidagi ahamiyati. Byudjet ssudalari hisobining maqsadi va vazifalari. Byudjet ssudalarini xujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish. Byudjet ssudalarini olish va qaytarilishining sintetik va analitik hisobi. Byudjet ijrosi jarayonida byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan hisoblashishlar hisobi. Berilgan va olingan mablag'lar bo'yicha Byudjet ijrosi davrida yuzaga keladigan o'zaro hisoblashishlarning hisobi. Byudjet ssudalari va Byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan hisoblashishlarni hisobning axborot tizimlarida aks ettirish.

## **6-Mavzu. Davlat Byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisobotlar**

Davlat Byudjeti ijrosi natijalarni aniqlashtartibi. Davlat Byudjeti ijrosi natijalaribo'yicha joriy hisobvaraqlarni yopish. Davlat Byudjeti ijrosi natijalaribo'yicha davriy hisobotlarni shakllantirish. Davlat Byudjeti ijrosi natijalaribo'yicha hisobotlarning axborot imkoniyatlari. Axborot tizimlari vositasida byudjet ijrosi natijalari hisobini yuritish va hisobotlarni tuzishning xususiyatlari.

## **7-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobining tashkiliy -uslubiy jihatlari**

Byudjet tashkilotlarida Byudjet hisobini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari. Byudjet tashkilotlarida Byudjet hisobining ahamiyati. Byudjet tashkilotlarida yuritiladigan hisob shakllari. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosi hisobi bo'yicha foydalaniladigan hisob hujjatlari, ularning tayinlanishi, rasmiylashtirish texnikasi va tartibi. Sintetik va analitik hisob registrleri va ularga yozuvlar qilish tartibi. Byudjet tashkilotlarida Byudjet hisobini tashkil etishda axborot tizimlari.

## **8-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi**

Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi va ularni tuzish tartibi. Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning hususiyatlari. Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobining hususiyatlari. Byudjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish tartibi. Byudjet tashkilotlarida smetalar ijrosini yuritishda hisobning axborot tizimlaridan foydalanish.

## **9-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etishning maqsadi va vazifalari. Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlar harakati hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni kirim qilinishi hamda hisobdan chiqarilishi hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarning eskirish hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni baholanishi va buxgalteriya hisobida aks ettirilishi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda hisobning axborot tizimlari.

## **10-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralari hisobi**

Byudjet tashkilotlarida material qiymatliklarning tarkibi, tayinlanishi va hisobining vazifalari. Byudjet tashkilotlarida material qiymatliklarning sotib olinishi va sarflanishi hisobi. Material qiymatliklarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Material qiymatliklar bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil

etish. Material qiymatliklar bo'yicha limitlarni aniqlash. Axborot tizimlari vositasida tovar moddiy zaxiralar hisobini yuritish.

### **11-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi**

Hisobvaraqlardagi Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining maqsadi va vazifalari. Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. Shaxsiy hisobvaraqlardagi Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'larning analitik va sintetik hisobi. Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisobvaraqlarni yopish tartibi. Byudjet tashkilotlarida kassa operatsiyalari hisobini tashkil etish. Kassa operatsiyalari bo'yicha hisob xujjatlarini yuritish va kassa hisobotini shakllantirish. Kassa muomalalarini hisobvaraqlar va hisob registrlarida aks ettirish. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda axborot tizimlari.

### **12 -Mavzu.Byudjet tashkilotlarida turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi**

G'azna ijrosi sharoitida Byudjet tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish. Byudjet tashkilotlarida mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Boshqa turli debitor va kreditor majburiyatlar bo'yicha hisoblashuvlar hisobi. Byudjet tashkilotlarida debitor va kreditor majburiyatlar hisobi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish. Byudjet tashkilotlarida turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

### **13-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga haq to'lash hisobini tashkil etish hamda uning vazifalari. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobi. Stipendiya to'lovlari, pensiya va nafaqalar bo'yicha to'lovlar hisobi. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq va majburiy ajratmalarning yuzaga kelishi va to'lanishi hisobi. Ish haqiga nisbatan majburiy ushlanmalar hisobi. Byudjet tashkilotlarida mehnat haqi bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovlar hisobi. Mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'lanishida plastik kartochkalardan foydalanish hisobi. Byudjet tashkilotlarida xizmat safar xarajatlari bo'yicha hisobdor shaxslar bilan hisoblashuvlar. Kamomadlar bo'yicha hodimlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Axborot tizimlari vositasida hodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlarni hisobga olish.

### **14-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni aniqlashning zarurligi.Moliyaviy natijalarni aniqlashning davriyligi. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalarni aniqlash va ularni hisobda aks ettirishning xususiyatlari. Yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi. Yakuniy moliyaviy natijalarni buxgalteriya hisobvaraqlari va hisob



registrlarida aks ettirish. Moliyaviy natijalarni hisobda aks ettirishda axborot tizimlaridan foydalanish.

### **15-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar**

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish tartibi. Buxgalteriya balansini tuzish. Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobotni tuzish tartibi. Debitorlik va kreditorlik qarzar to'g'risida ma'lumotni tuzish tartibi. Byudjet tashkiloti rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobotni tuzish tartibi. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Moliyaviy hisobotlarni tuzishda axborot tizimlarining roli.

## **2. Fanning amaliy mashg'ulotlari mazmuni**

### **1-Mavzu. "Byudjet hisobi" faniga kirish. Fanning mazmuni, predmeti, metodi va usullari.**

"Byudjet hisobi" fanining predmeti, metodi va uslubiy asoslari. Byudjet hisobi ob'ektlarining iqtisodiy mazmuni. Byudjet hisobining byudjet ijrosi sohasidagi vazifalari. "Byudjet hisobi" fanining boshqa maxsus fanlar bilan aloqasi.

### **2- Mavzu. Davlat Byudjeti ijrosi hisobining tashkiliy – uslubiy jihatlari**

Moliya organlari, G'aznachilik va uning xududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari. Moliya organlari, G'aznachilik va uning xududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslari. Moliya organlari, G'aznachilik va uning xududiy bo'linmalari buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan buxgalteriya xujjatlari. Moliya organlari, G'aznachilik va uning xududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan hisobvaraqlar va buxgalteriya balansining tuzilishi. Moliya organlari, G'aznachilik va uning xududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobi registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi.

### **3–Mavzu. Davlat Byudjetidaromadlari ijrosi hisobi**

Davlat byudjeti daromadlari hisobining vazifalari. G'azna ijrosi sharoitida Davlat byudjeti daromadlari hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. G'azna ijrosi sharoitida Davlat byudjeti daromadlarining kassa ijrosi hisobi. G'azna ijrosi sharoitida Davlat byudjeti daromadlarini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari va hisob registrlarida aks ettirish. Moliya organlarida shu jumladan g'aznachilik va uning hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti daromadlari hisobining hususiyatlari.

#### **4–Mavzu.Davlat Byudjeti xarajatlari ijrosi hisobi**

Byudjet xarajatlari kassa ijrosi haqida tushuncha. Moliyalashtiruvchi organlar, ularning huquqlari va majburiyatlari. Davlat byudjeti xarajatlarining kassa ijrosi hisobi. O‘zbekiston Respublikasi g‘aznachiligi va uning hududiy bo‘limlari orqali moliyalashtirish tartibi. G‘aznachilik bo‘limlarida moliyalashtirishni xujjatlashtirish, buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish. Moliya organlarida shu jumladan g‘aznachilik va uning hududiy bo‘limlarida byudjet xarajatlari hisobining hususiyatlari.

#### **5-Mavzu.Byudjetlararo munosabatlar hamda qarzlar hisobi**

Byudjet ssudalari, uning byudjet ijrosi jarayonidagi ahamiyati. Byudjet ssudalari hisobining maqsadi va vazifalari. Byudjet ssudalari hisobini tashkil etish. Byudjet ssudalarini hisob registrlari va xujjatlarida aks ettirish. Byudjet ijrosi jarayonida byudjetlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan hisoblashishlar hisobi. Berilgan va olingan mablag‘lar bo‘yicha davlat byudjeti ijrosi davrida yuzaga keladigan o‘zaro hisoblashishlarning hisobi. Byudjet ssudalarini olish va qaytarilishining sintetik va analitik hisobi.

#### **6-Mavzu. Davlat Byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisobotlar**

Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda mahalliy byudjet ijrosi bo‘yicha natijalarini aniqlash tartibi.Byudjet ijrosi bo‘yicha joriy hisobvaraqlarni yopish. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini shakllantirish. Byudjeti ijrosi bo‘yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarining axborot imkoniyatlari.

#### **7-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning nazariy-uslubiy asoslari**

Davlat byudjeti g‘azna ijrosi sharoitida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning vazifalari. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining hususiyatlari. Byudjet tashkilotlarida yuritiladigan buxgalteriya hisobining shakllari. Byudjet tashkilotlari xarajatlari smetasi ijrosi hisobi bo‘yicha foydalaniladigan buxgalteriya hujjatlari, ularning tayinlanishi, rasmiylashtirish texnikasi va tartibi. Buxgalteriya balansining tuzilishi. Sintetik va analitik hisob registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi.

#### **8-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida smetalar hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi.**

Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi va ularni tuzish tartibi. Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning hususiyatlari. Byudjet mablag‘lari bo‘yicha smeta xarajatlarini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi. Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobining hususiyatlari. Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.

## **9–Mavzu.Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarhisobini tashkil etishning maqsadi, vazifalari. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni baholanishi va buxgalteriya hisobida aks ettirilishi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni kirim qilinishi hamda hisobdan chiqarilishi hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarning eskirishi hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobi. Asosiy vositalar inventarizatsiyasi hisobi.

## **10–Mavzu.Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralalar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralarning tarkibi, tayinlanishi va hisobining vazifalari.Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralarning kirimi hamda xisobdan chiqarilishi hisobi.Tovar moddiy zaxiralarning hisobga oluvchi hisobvaraqlarni tayinlanishi. Tovar moddiy zaxiralarning bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil etish. Tovar moddiy zaxiralarning bo'yicha limitlarni aniqlash tartibi. Tovar moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi hisobi.

## **11-Mavzu.Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi**

Hisobvaraqlardagi Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining maqsadi va vazifalari. Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. Shaxsiy hisobvarqlardagi Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'larning analitik va sintetik hisobi. Byudjet va Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisobvaraqlarni yopish tartibi.

## **12–Mavzu.Byudjet tashkilotlarida turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobini tashkil etishni maqsadi va vazifalari. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. G'aznachilik organlarida moliyaviy majburiyatlarni to'lab berish hisobi. Byudjet tashkilotlarida kassa operatsiyalari hisobini tashkil etish. Kassa operatsiyalari bo'yicha hisob xujjatlarini yuritish va kassa hisobotini shakllantirish. Kassa operatsiyalarini buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish. Byudjet tashkilotlarida boshqa pul mablag'lari hisobi. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy qo'yilmalar hisobi.

## **13–Mavzu.Byudjet tashkilotlarida xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi**

G'azna ijrosi sharoitida byudjet tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish. Byudjet tashkilotlarida mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisoblashuvlar hisobi. Byudjet tashkilotlarida xizmat safar xarajatlari bo'yicha hisobdor shaxslar bilan

hisoblashuvlar. Kamomadlar bo'yicha hodimlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Boshqa turli debitor va kreditor majburiyatlar bo'yicha hisoblashuvlar hisobi. Hisoblashuv muomalalari bo'yicha inventarizatsiya hisobi.

#### **14–Mavzu. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi**

Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga haq to'lash hisobini tashkil etish hamda uning vazifalari. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobi. Stipendiya to'lovlari, pensiya va nafaqalar bo'yicha to'lovlar hisobi. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq va majburiy ajratmalarning yuzaga kelishi va to'lanishi hisobi. Ish haqiga nisbatan majburiy ushlanmalar hisobi. Mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'lanishida plastik kartochkalardan foydalanish hisobi.

#### **15-Mavzu. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar**

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish tartibi. Buxgalteriya balansini tuzish. Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobotni tuzish tartibi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotni tuzish tartibi. Byudjet tashkiloti rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobotni tuzish tartibi. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Xarajatlar smetasi ijrosi haqida oylik hisobotni tuzish tartibi.

#### **IV. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

#### **V. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

Fan bo'yicha kurs ishio'quv rejada ko'zda tutilmagan.

#### **VI. Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni**

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishchi o'quv rejada Moliya yo'nalishiga 110 soat. Ushbu soatlar talabaning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va

boshqa mustaqil shug'ulanishini o'z ichiga oladi.

### **“Byudjet hisobi” fani bo'yicha mustaqil ta'limning mazmuni**

<b>Fan mazmuni</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mazulari</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
“Byudjet hisobi” faniga kirish. Fanning mazmuni, predmeti va usullari.	Byudjet hisobining mohiyati, maqsadi va vazifalari	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida
Davlat Byudjeti ijrosi hisobining tashkiliy – uslubiy jihatlari	Byudjet hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlar	Mustaqil ish tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu jarayonida
Davlat Byudjeti daromadlari ijrosi hisobi	Byudjet daromadlari kassa ijrosini hisobda aks ettirish	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida
Davlat Byudjeti harajatlari ijrosi hisobi	Byudjet harajatlari kassa ijrosini hisobda aks ettirish	Mustaqil ish tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida
Byudjetlararo munosabatlar hamda qarzar hisobi	Byudjet o'rtasida o'zaro hisoblashishlar	Keys stadi tayyorlash	Oraliq baholashda
Davlat Byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisobotlar	Byudjet ijrosi natijasini hisobda aks ettirish	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu jarayonida
Byudjet tashkilotlarida Byudjet hisobining tashkiliy – uslubiy jihatlari	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish	Mustaqil ish tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
Byudjet tashkilotlarida smetalar hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi	Smeta va shtatlar jadvalini tuzish	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida
Byudjet tashkilotlarida Tovar moddiy zaxiralar hisobi	Tovar moddiy zaxiralar hisobini yuritish	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda
Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobini yuritish	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda

Byudjet tashkilotlarida turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi	Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobining xususiyatlari	Keys stadi tayyorlash	Oraliq baholashda
Byudjet tashkilotlarida xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi	Hodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobining xususiyatlari	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida
Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi	Byudjet mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalarni hisobda aks ettirish Yakuniy moliyaviy natijalar hisobini yuritish	Mustaqil ish tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish. Buxgalteriya balansini tuzish.	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg‘ulot davomida

## VII. Fan bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me‘zonlari

Baholash usullari	Baholash mezonlari
Testlar, yozma ishlar, og‘zaki savol-javoblar.	<b>86-100 ball “a’lo”:</b> Fanga oid nazariy bilimlarni to‘la o‘zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo‘lish.
	<b>71-85 ball “yaxshi”:</b> Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
	<b>55-70ball “qoniqarli”:</b> Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lish.
	<b>0-54 ball “qoniqarsiz”:</b> Fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik,

## Reyting baholash turlari

Joriy baholash		Maksimal ball
Joiry nazorat (20 ball)	MT (16 ball)	36
Joriy nazorat darslarga aktiv ishtiroki va o‘zlashtirish darajasi, mashg‘ulot daftarlarining yuritilish holati va mavzular bo‘yicha vazifalarining bajarilishini e‘tiborga olish orqali amalga oshiriladi.	Mustaqil ta’limni baholash topshiriqlarining partfoliosi (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi	

Oraliq baholash			Maksimal ball
№	Oraliq nazorat (20 ball)	MT (14 ball)	34
I	Oraliq nazorat ma'ruza darslarida aktivligi, mashg'ulot daftarlarining yuritilish holatini e'tiborga olish va oraliq nazorat nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi. (8 ball)	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining partfoliosi (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi. (6 ball)	14
II	Oraliq nazorat ma'ruza darslarida aktivligi, mashg'ulot daftarlarining yuritilish holatini e'tiborga olish va oraliq nazorat nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi. (12 ball)	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining partfoliosi (prezetatsiya, testlar, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi. (8 ball)	20

  

№	Yakuniy nazorat	Maksimal ball
1	Yakuniy nazorat semestr yakunida <u>yozma ish</u> , test yoki og'zaki shaklda o'tkaziladi.	30

### Yakuniy nazoratni “Yozma ish” asosida o'tkazish

#### MEZONI

Talabalar “Byudjet hisobi” fanidan yakuniy nazoratni “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi. “Yozma ish” ko'p variantli usulda o'tkazilib, har bir variantda uchtadan savol va bittadan amaliy topshiriq beriladi hamda har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 10 ball oraliq'ida baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, byudjet hisobining nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri qo'llanilsa, byudjet hisobiga oid o'z mustaqil fikriga ega bo'lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri javob yozilsa, byudjet hisobining nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri qo'llanilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 9-10 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga to'g'ri javob yozilsa, byudjet hisobining nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri qo'llanilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 7-8 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilsa, qisman noto'g'ri javob yozilsa yoki o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirib yozilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 6 ball bilan baholanadi.

Belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa 0-5 ball bilan baholanadi.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

## VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar:

1. Tuychiev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2018. 428 b.
2. Tuychiev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2019. 329 b.
3. Tuychiev A.J., Ibragimov K.Sh. Byudjet hisoboti. O'quv qo'llanma. “IQTISOD MOLIYA”. – T.: 2018. 254 b.
4. Hamdamov B.K. va Ostonokulov A.A. Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. “IQTISOD MOLIYA”. – T.: 2018. 318 b.
5. Mehmonov S.U., Kulibayev A.Sh. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobi. O'quv qo'llanma. “IQTISOD MOLIYA”. – T.: 2018. 217 b.
6. Коренкова С.И. Бюджетный учет и отчетность. Учебное пособие для вузов. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 195 с.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

7. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasibo'lishi kerak. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU 2017. - 48 b.
11. Toshmuxeimedova D.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2018. – 328 b.
12. Туйчиев А.Ж. и др. Бюджетный учет. Учебной пособия. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2018. – 278 b.
13. Tuychiev A.J., Abidov M.I. Byudjet tasnifi. O'quv qo'llanma. “IQTISOD MOLIYA”. – T.: 2018. 264 b.
14. Качкова О.Е., Кришталева Т.И., Овсяйчук М.Ф. Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях. Учебник. — Москва: КноРус, 2016. — 295 с.

### Internet saytlari:

15. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
16. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti)



17. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti)
18. [www.ach.gov.uz](http://www.ach.gov.uz) (O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining rasmiy veb sayti)
19. [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) (O'zbekiston Respublikasining "Ochiq byudjet" portali)